

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

«Muhandislik-texnologiya» fakulteti

«Texnologik mashina va jihozlar» kafedrası

Himoyaga ruhsat etildi

Fakultet dekani

«__»_____2017 yil

5320300- Texnologik mashinalar va jihozlar ta'lim yo'nalishi bo'yicha bitiruvchi

Ismanov Xasanboy Ibrogimjonovichning

«Chigitli paxta tozalash qurilmasini loyihalash» mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bitiruvchi: Ismanov X.I. _____

Ilmiy rahbar: Obidov A.A. _____

Kafedra mudiri: Obidov A.A. _____

Namangan - 2017 y.

MUNDARIJA

№	Bo'lim nomi	Beti
	Kirish.....	4
1-BOB	Paxta xom ashyosini tozalash jarayonining hozirgi holati.....	6
1.1.	Paxta tozalash korxonasida mavjud paxta xom ashyosini tozalash mashinalari haqida ma'lumot	6
1.1.1.	Chigitli paxtani mayda iflosliklardan tozalash texnologiyasi.....	7
1.1.2.	Mayda iflosliklardan tozalash uskunalari konstruksiyasi va ishlash tartibi.....	10
1.2.	Yirik iflosliklar va ularning turlari.....	12
1.2.1.	Yirik iflosliklardan tozalash uskunalari konstruksiyasi va ishlash tartibi.....	14
1.2.2.	Paxta tozalashning zamonaviy uskunalari.....	18
2-BOB	Paxta tozalash qurilmasi ishchi organlarini loyihalash.....	22
2.1.	Tozalash mashinalarning loyihalariga qo'yiladigan texnologik talablar	22
2.2.	Cho'tkali barabanni hisoblash	26
2.3.	Paxta tarkibidagi mayda iflosliklarni ajratib olish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari tahlili	30
2.4.	Yangi tozalash qurilmasining texnologik parametrlarini aniqlash.....	35
3-BOB	Mehnat muhofazasi qismi.....	44
3.1.	Changdan himoyalanish	44
3.1.1.	Havo tozalash qurilmalariga qo'yiladigan asosiy talablar.....	46
3.2.	Matoli filtrlar.....	49
3.2.1.	Tsiklonlar.....	51
4-BOB	Iqtisodiy-ijtimoiy qism.....	53
4.1.	Taklif etilgan qurilmani ishlatish orqali olingan tolaning sifatini	

aniqlash va undan olinadigan iqtisodiy samaradorlik hisobi.....	53
Umumiy xulosalar.....	55
Adabiyotlar ro'yxati.....	56
Ilovalar.....	59

Kirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.12.2016 yildagi PQ-2687-son to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risidagi qarori [1] da belgilangan vazifalar ijrosi bo'yicha respublikamizda ushbu sohani rivojlantirish bo'yicha ko'plab ishlar olib borilmoqda. Shu qatorda to'qimachilik sanoati uchun hom ashyo yetkazib beruvchi paxta tozalash korxonalari ishini takomillashtirish bo'yicha ham vazifalar belgilangan.

Paxta tozalash korxonalarining asosiy vazifasi qishloq xo'jaligida yetishtirilgan paxtani o'z vaqtida qabul qilib, undan sifatli maxsulotlar ishlab chiqarishdan iborat. Bunda paxtani quritish va xascho'plardan tozalash muhim o'rin tutadi. Shuningdek, paxtani jinlash va tolani tozalash, chigitni linterlash, tola chiqindilarni qayta ishlab bu maxsulotlarni presslab toy shakliga keltiriladi. Mana shu masalani amalga oshirishda qisqa texnologiyada mavjud bo'lgan mashinalar bilan qiyin tozalanadigan paxta navlaridan sifatli tola olish imkoni bo'lmay turibdi. Chunki, bu qisqa texnologiya qo'lda terilgan tozalanadigan navlar uchun yaxshi samara berish hamda elektr energiyani iqtisod qilish ishlab chiqarishda o'z isbotini topgan.. Ammo qiyin tozalanadigan navlarda g'o'za barglarining paxta tolasini bilan mustahkam ishlanganligi sababli uni ajratib olishda qushimcha tozalash mashinalarini o'rnatish talab qilinadi. Bundan tashqari qiyin tozalanadigan paxtani yaxshi qurigan namligi yuqori bo'lmagan holda bo'lganda uni tozalash samarasi past bo'ladi.

Paxta tolasining sifati birinchi navbatda paxtaning tabiiy xususiyatiga, ob-havo sharoitiga, agorotexnik qoidalariga rioya qilishga bog'liq. Bundan tashqari uning sifatini yomonlashishiga paxtani terishdan boshlab paxta tolasini toylashgacha bo'lgan texnologik jarayonlarga o'rnatilgan mashina va mexanizmlarning ishlashi ham sabab bo'ladi. Paxta va to'qimachilik sanoatidagi texnologik jarayonlarga o'rnatilgan jihozlarining asosiy qismi paxta tolasini iflos aralashmalardan tozalashga mo'ljallangan. Tozalash mashinalarining paxtaga ko'rsatgan mexanik ta'sirini ko'pligi natijasida chigit shikastlanadi, tolaning tabiiy xususiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tola o'zining mustahkamligini va egiluvchanligini yo'qotadi, shikastlanadi va uning tarkibida to'qimachilik sanoatida ishlatib bo'lmaydigan kalta

tolalar hosil bo'ladi. Bundan tashqari chigit shikastlanadi va tlaning tarkibida har xil nuqsonlar paydo bo'ladi. Paxta tozalash korxonalaridagi texnologik jarayonga o'rnatilgan tozalash mashinalari samaradorligi bugungi talablarga javob bermay qo'ydi. Keyingi vaqtlarda paxta xom ashyosining hosildorligi yuqori bo'lgan qiyin tozalanadigan yangi navlarda mayda iflosliklarni ajratib olish murakkabligi mashinalar samaradorligini oshirishni talab qilmoqda. Bugungi kunda paxta tozalash korxonalarida yuqori tozalash samaradorligiga erishish faqatgina quritish va tozalash jarayonlarida paxtani qayta tozalash orqali erishilmoqda. Bu esa o'z navbatida energiya va material sarfini oshiradi, boshqa tomondan paxta tolasi va chigitning tabiiy xususiyatlarini yomonlashishiga va iflos aralashmalar bilan birga tolani chiqib ketishiga sabab bo'ladi. Sifat ko'rsatkichlarining yomonlashishi tozalagich ishchi organlarining paxtaga ko'rsatgan salbiy ta'siri hisobiga sodir bo'ladi. Loyihaning asosiy maqsadi paxta xom ashyosining tabiiy xususiyatlarini va dastlabki sifat ko'rsatkichlarini saqlab qolgan holda tozalash samaradorligini oshirishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi paxtani mayda iflosliklardan tozalashda vertikal ishchi kameraga joylashgan qiya pog'onali tebranuvchi to'rli yuzali mashina yaratib, uni to'rli sirtlardan foydlangan holda eng optimal harakatini topish va uning sanoat-tajriba nushasini sinovdan o'tkazish. Bundan tashqari qurilmada paxtaning to'rli yuzadagi tebranma harakatini samarali ishlashini ta'minlaydigan texnologik o'lchamlar aniqlanadi. Hozirgi vaqtda paxta terishda faqat qo'l terimidan foydalanilayotganligini hisobga olinsa, bu qurilmani ishlatish har tomonlama maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu mashina konstruksiyasini yasash, uni ishlatish va ta'mirlash qulayligi, arzonligi bilan boshqa tozalash mashinalaridan farqlanadi.

1.BOB. Paxta xom ashyosini tozalash jarayonining hozirgi holati.

1.1. Paxta tozalash korxonasida mavjud paxta xom ashyosini tozalash mashinalari haqida ma`lumot

Chigitli paxta tolasini chigitidan ajratish jarayonida uning iflos aralashmalarni tola sifatiga zarar qilmasligi uchun, ular quritish-tozalash va tozalash sexlari ichiga o'rnatilgan tozalash uskunalarida iflos avralashmalardan tozalanadi.

G'o'za ko'saklarining yetilish davrida barg va shoxchalar quriy boshlaydi, mo'rt bo'lib, oson sinib maydalanadi va ochilgan paxtaga qo'shilib, uni ifloslantiradi.

Chigitli paxtani qo'l bilan terganda uning ifloslanish darajasi asosan terimchining diqqatiga bog'liq bo'lsa, mashina bilan terishda esa g'o'za barglarini to'ktirish (defolyatsiya) ishlarining o'z vaqtida va sifatli o'tkazilishiga bog'liq bo'ladi.

Chigitli paxtada uchraydigan aralashmalar kelib chiqishi jihatidan organik va mineral jismlar bo'linadi.

Organik jismlarga g'o'za tupining qismlari-barg, shoxchalar, chanoq pallalari, gul barglari va boshqa o'simlik qismlari (g'umay va boshqa begona o'tlar) kiradi.

Mineral qo'shilmalarga tosh, qum, tuproq, kesak va hakoza kiradi.

Chigitli paxtada bo'ladigan iflos aralashmalar o'lchami jihatidan shartli ravishda ikki guruxga bo'linadi.

Mayda aralashmalar o'lchamlari- 10 mm dan kam bo'lgan va yirik aralashmalar - o'lchamlari 10 mm dan katta bo'lgan.

Iflos aralashmalar chigitli paxtaga ilashishi jihatidan passiv yoki inertli va aktiv xillarga bo'linadi. Passiv yoki inertli aralashmalar chigitli paxta pallalarining sirtida bo'lib, yengil silkitganda chigitli paxtadan oson ajraladi. Aktiv aralashmalarni chigitli paxtadan ajralishi qiyin bo'ladi. Aktiv aralashmalarni chigitli paxtadan ajratish uchun ularni avval passiv holatga keltirish kerak bo'ladi. Shuning uchun paxta tozalash uskunalarini tanlashda aralashmalarning xarakteriga va ularning chigitli paxtaga qanday yopishganligiga ahamiyat berish kerak.

1.1.1. Chigitli paxtani mayda iflosliklardan tozalash texnologiyasi

Chigitli paxtadan har xil iflosliklarni ajratish uchun kerakli uskunalar turlarini tanlashda ularning fizika-mexanikaviy xususiyatlarni (o'lchamlari, kelib-chiqishi, paxtaga ilashish darajasi) nazarga olish katta ahamiyatga ega.

Chigitli paxtani xas-cho'plardan tozalash mashinalari qoziqchali barabanlar sektsiyasi va arrachali barabanli sektsiyalaridan iborat bo'ladi. Mayda xas-cho'plar qoziqchali barabanlar sektsiyasida, yirik aralashmalar esa arrachali barabanli sektsiyalarda yaxshi tozalanadi.

Chigitli paxtani tozalash uskunalari ish unumdorligi va tozalash samaradorligi (chigitli paxtadan xas-cho'p, ulyuk va puch chigitlarni ajratish qobiliyati) bilan baholanadi (xarakterlanadi). Uskunaning tozalash samaradorligi uskunaga tushgan paxtadan ajratilgan aralashma massasining chigitli paxta massasiga nisbati bilan foiz hisobida aniqlanadi:

$$K_M = \frac{C_1 - C_2}{C_1} * 100 \quad \%$$


bunda: C_1 , C_2 - chigitli paxtaning tozalashdan oldin va tozalashdan keyingi ifloslik darajasi.

Uskunalarining tozalash samaradorligiga ularning ish unumdorligi, chigitli paxtaning namligi va iflosligi katta ta'sir qiladi. Uskunalarining ish unumdorligi ularning eng yuqori tozalash samaradorligiga moslab oshiriladi. Chigitli paxtaning namligi normal darajagacha kamaytirilganda tozalash samaradorligi ko'payib, iflos aralashmalarni chigitli paxtadan ajralishi osonlashadi. Namligi normal darajadan yuqori bo'lgan chigitli paxtani tozalaganda uskunalarining tozalash samaradorligi kamayishidan tashqari shu chigitli paxtanining tolasida qo'shimcha nuqsonlar ham ko'payadi. Buni ilmiy tekshirish instituti ma'lumotlaridan ko'rish mumkin.

Chigitli paxtaning ishlanish shartlari	Namligi,	Iflosligi	Toladagi nuqson lar, %	
	%	%	ifloslik, %	nuqson lar, %
Quritishdan o'tkazilmagan	14,2	13,6	12,4	18,5
Quritishdan o'tkazilgan	10,1	13,3	6,3	12,5

Mayda iflosliklar chigitli paxtadan barabanli va shnekli tozalagichlarda yaxshi ajraladi va ularni ajratish uchun tozalash jarayonida chigitli paxtani elash yetarli deb hisoblanadi. Shu sababli chigitli paxtani mayda iflosliklardan tozalash uchun qoziqli-titkilash uskunalari ishlatiladi.


To'rli sirtlar (1.1 -rasm) po'lat simlardan to'qilgan, har xil shakldagi ko'zli yaxlit tunuka yoki turli shakldagi kolosniklardan yasalgan bo'lishi mumkin.



1.1-rasm. To'rli sirtlar turlari sxemasi.

a). po'lat simdan to'qilgan b),v). har xil teshikli tunukadan yasalgan.

Uskunaning tozalash samaradorligi qoziqli-titkilash barabani bilan to'rli sirtning bir-biriga nisbatan joylashishiga ham bog'liq bo'ladi. 1.2-rasmda qoziqchali baraban bilan to'rli sirt orasidagi kuchlar sxemasi berilgan



1-qoziqchali baraban; 2-qoziqcha; 3-to'rli sirt.

1.2-rasm. Qoziqchali barabanli tozalagichlarda chigitli paxtaga ta'sir qiladigan kuchlar

F_1 -chigitli paxta bo'lagining to'rli sirtga ishqalanish kuchi

G_1 -markazdan qochma kuch

G -chigitli paxta bo'lagining og'irligi

F_2 -chigitli paxta bo'lagining qoziq sirtiga ishqalanish kuchi

R -kamera ichidagi havo oqimining qarshiligi.

F_1 va R kuchlari bir tomondan, G_1 va F_2 kuchlari ikkinchi tomondan juft kuchlarni tashkil qilib, chigitli paxta bo'lakchasini sirt strelkasi yo'nalishida aylantirishga intiladi. Uskuna ishlaganda chigitli paxta bo'lakchalari to'rli sirt ustiga urilishi natijasida undagi iflos qo'shimchalar ajraladi va to'rli sirt teshiklari orqali tashqariga chiqib ketadi.


Ba'zi tozalagichlarning barabanlarida ikki qator qoziqchalar o'rnatilgandan keyin uchunchi qatorga yaxlit planka o'rnatilgani uchun bunday tozalagichlar qoziqchali-plankali deb ataladi. Qoziq plankali tozalagichlarning tozalash samaradorligi birmuncha yuqori bo'ladi, chunki bularda chigitli paxta qoziqchalar bilan titiladi, planka esa havo oqimini kuchaytirib, yaxshiroq tozalashga olib keladi.

1.1.2. Mayda iflosliklardan tozalash uskunalari konstruksiyasi va ishlash tartibi

Chigitli paxtani mayda iflosliklardan tozalash uchun ishlatiladigan uskunalar paxta tozalash zavodining quritish-tozalash, tozalash sexiga va har bir jinning ta'minlagichiga o'rnatiladi. Chigitli paxtadan mayda iflosliklarni ajratish uskunalari pnevmatik, pnevmamexanik va mexanik usullarga bo'linadi.

Mayda iflosliklarni ajratish uskunalari texnologik qatorda o'rnatilish joyiga qarab individual va batareyali, ish organlarining chigitli paxtaga ta'siri jihatidan bir ta'sirli va qayta ta'sirli, ish organlarining soniga qarab bir barabanli va ko'p barabanli, konstruksiyasi bo'yicha esa barabanli va shnekli xillarga bo'linadi.

Hozirgi kunda paxta tozalash sanoati korxonalarida chigitli paxtani mayda iflosliklardan tozalashda asosan 8ta qoziqchali barabanli SCh-02, 1XK markali tozalagichlar va yeN178 qoziqchali bloklar ishlatilmoqda. 1.3-rasmda 1XK markali mayda iflosliklardan tozalash uskunasiining konstruksion sxemasi berilgan.



1.3-rasm. 1XK rusumli chigitli paxtani mayda iflosliklardan tozalash mashinasining texnologik sxemasi.

1-ta'minlash valigi; 2-qoziqchali baraban; 3-to'rli sirt (yuza). 4-ifloslik bunkeri;
5-lotok.

Ishlash jarayoni quyidagicha: chigitli paxta ta'minlash valiklari (1) ustiga o'rnatilgan shaxtaga tushiriladi. Bir-biriga qarama-qarshi aylanuvchi ta'minlash valiklari chigitli paxtani qoziqchali barabanga uzatadi. Qoziqchali baraban o'z navbatida chigitli paxtani titkilab to'rli sirt ustidan sudrab o'tadi va ikkinchi barabanga uzatadi. Shu tartibda chigitli paxta hamma barabanlarda tozalanib mayda iflosliklardan ajratiladi. Ajratilgan iflosliklar barabanlar tagidagi to'rli sirt teshiklari orqali iflosliklar bunkerlarining qiya devorlari bo'ylab pastga tushadi va pnevmatransport bilan so'rib olinadi. Tozalangan chigitli paxta esa keyingi texnologik jarayoniga uzatiladi.

Uskunaning haqiqiy ish unumdorligini quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$Q = \frac{3,6 \cdot L \cdot F \cdot \rho_x \cdot \eta \cdot \varphi}{T}$$

bunda, L-chigitli paxtaning tozalagich ichida ishlanish yo'lining uzunligi, mm;

$\eta=0,25\div0,30$ - to'rli sirdan foydalanish koeffitsienti;

φ - tolagichdan foydalanish koeffitsienti, $\varphi=0,3\div0,35$;

ρ_x - chigitli paxtaning zichligi, kg/m^3 ;

T- chigitli paxtaning tozalagich ichida turish (bo'lish) vaqti, s

1XK (SCh-02) tozalagich uskunasining asosiy texnik ko'rsatkichlari:

1.Ish unumdorligi.....5,0÷7,0 t/soat

2. Aylanish tezligi

a) ta'minlovchi valik.....0÷14 ayl/min

b) qoziqchali baraban.....480 ayl/min

3. Texnologik masofa (to'rli sirt

bilan qoziqchali baraban oralig'i).....14÷20 mm

4. Tozalash samaradorligi.....45÷50 %

1.2.Yirik iflosliklar va ularning turlari

Oldingi ma'ruzada aytib o'tilganidek chigitli paxtada bo'ladigan iflos qo'shimchalar o'lchami jihatidan shartli ravishda ikki guruxga bo'linadi. Mayda aralashmalar guruxiga teshiklari 10 mm li to'rdan o'tadigan va yirik aralashmalar guruxiga bunday (10 mm) to'rdan o'tmaydiganlar kiradi. Yirik aralashmalar organik va mineral bo'lishi mumkin. Yirik aralashmalar chigitli paxtaga ilashishi jixatidan passiv holatda bo'ladi. Ularning o'lchamlariga bog'liq holda asosan iflosliklar chigitli paxtaning ustki qatlamida joylashadi. Shu sababli ularni silkitish hisobiga ajratish oson. Lekin tozalash davrida uskunalarning ishchi organlariga urilish kuchi ta'siri hisobiga parchalanib mayda iflosliklar guruxiga aylanishi ham mumkin.


Texnologik uskunalarning to'xtovsiz va samarali ishlashi uchun chigitli paxtadagi tasodifiy ravishda qo'shilgan og'ir jismlarni oldindan ajratib olish lozim. Bu og'ir jismlar (tosh, kesak, temir parchalari va h.k.) texnologik uskunalarning ish organlariga zarar yetkazib, mahsulot sifatini va uskunalarning ish unumdorligini pasaytiradi. Chet (og'ir) jismlar texnologik uskunalarga zarar yetkazish bilan birga, ish vaqtida yong'in chiqarish xavfini olib keladi.

Chigitli paxtani har xil aralashmalardan tozalash uchun, ularning (aralashmalarining) fizik-mexanikaviy xususiyatlarini hisobga olib, texnologik uskunar turi tanlab olinadi. Masalan: yirik iflosliklarni chigitli paxtadan ajratishda arrali barabanlar sektsiyasidan foydalaniladi.


Chigitli paxtani yirik iflosliklardan tozalash samaradorligi uskuna ish organlarining chigitli paxtaga ta'sir etish usuliga: to'rli sirt yoki kolosnik ustida chigitli paxtani silkitish, tozalash vaqtida havo oqimining aralashishi, arrali barabanlarning chigitli paxta bo'laklarining qanday titkilab tarashiga bog'liq. Tozalash uskunalari ish organlarining chigitli paxtaga ta'siri o'z navbatida bir qator sabablarga: uskunaning ish unumdorligiga, ish qismlarining aylanish tezligiga, ish organlari orasidagi texnologik masofalarga (zazorlarga), ularning konstruksiyasiga, chigitli paxtaning nechanchi marta tozalanishiga bog'liq.

Arrachali barabanli tozalagich uskunalarning (1.4-rasm) asosiy ish organlari arrachali baraban (1) bilan uning tagiga ma'lum bir masofada (zazor) qatorlab


qo'yilgan kolosniklardan (2) iborat. Bu ish organlari chigitli paxta bo'lakchalarini arra tishlariga bosish cho'tkasi (3) va ajratib oluvchi cho'tkalari (4) birgalikda chigitli paxtadan yirik iflosliklarni ajratish texnologik jarayonini tashkil etadilar.




1.4-rasm. Yirik iflosliklardan tozalashda foydalaniladigan asosiy ish organlar.



a) bir marta



b) ikki marta



v) uch marta

1.5-rasm. Arrali barabanli tozalagichlarning tozalash samaradarligi (N) uning ish unumdorligiga (0), naviga (1,N) va tozalash soniga (a,b,v) bog'liqligi

Arrali barabanli tozalagichlarning tozalash samaradorligi uning ish unumdorligiga va chigitli paxtaning sanoat naviga bog'liq.

1.5-rasmda ChX-3M2 markali 2 ta (arrali barabanli) sektsiyali chigitli paxtani tozalash uskunasi tozalash samaradorligining ish unumdorligiga bog'liq ekanligini ko'rsatadigan grafiklar keltirilgan. Bunda 1-egri chiziqlar birinchi navlar uchun va 11-egri chiziqlar past navli chigitli paxtani tozalash natijasida olingan ko'rsatkichlar asosida egri chiziqlari berilgan. Bu grafiklardan ko'rinib turibdiki, tozalash uskunalarining ish unumdorligi oshishi bilan uning tozalash samaradorligi pasayar ekan. Shu bilan bir qatorda chigitli paxtaning qaytalab tozalashga bog'liq, uskunaning tozalash qobiliyati ham kamayadi.

Arrachali barabanli tozalagichlarning ish unumdorligi (Q_a), tozalagich sektsiyasining paxta o'tkazish qobiliyatiga qarab belgilanadi:

$$Q_a = 3,6 \cdot v_n \cdot L \cdot h \cdot \rho_x \cdot \psi \cdot \varphi \quad \text{kg/soat}$$

bu yerda: v_n - ta'minlagich valiklarning aylanish chiziqli tezligi, m/s;

L- arrali baraban uzunligi, m;

h- baraban bilan kolosniklar orasidagi masofa, mm;

ρ_x - chigitli paxtaning zichligi, kg/m³ ($\rho_x=35\div40$);

ψ - to'ldirish koeffitsienti, $\psi= 0,3\div0,35$;

φ - tozalagichdan foydalanish koeffitsienti,

$\varphi= 0,3\div0,36$.

1.2.1. Yirik iflosliklardan tozalash uskunalari konstruktsiyasi va ishlash tartibi


Paxta tozalash zavodlarida chigitli paxtani dastlabki ishlash texnologik jarayoniga kiritilgan tozalash uskunalari shu zavodning tozalash sexlarida o'rnatilgan bo'lib, ularning joylashishi har xil variantlarda bo'lishi mumkin. Masalan: ChX-3M2 rusumli ikkita tozalash uskunalari qatorlab (batareya shaklida) joylashtiriladigan

bo'lsa, (har qatorda 4-6 uskunadan), UXK seksiyalari va 1XP rusumli uskunalar ketma-ket bitta oqim liniyasida o'rnatiladi.

Yirik aralashmalarni chigitli paxtadan ajratish texnologiyasida asosan foydalaniladigan ishchi organlari bir xil bo'lgani bilan ularni (arrali baraban, kolosniklar, cho'tkalar) uskuna ichida o'rnatish usullari har xil bo'lishi mumkin. Shu sababli yirik iflosliklardan tozalash mashinalarining konstruktsiyalari ham bir-biridan farq qiladi.

1.6-rasmda ChX-3M2 qoziqchali-arrachali barabanli tozalagich uskunasi ko'ndalang qirgimi bo'yicha texnologik jarayon sxemasi ko'rsatilgan. Tozalagich chigitli paxtani yirik va mayda xas-cho'plardan tozalash uchun mo'ljallangan bo'lib, paxta tozalash zavodlarining asosan tozalash sexlarida o'rnatiladi. ChX-3M2 markali tozalagich ta'minlash valiklari 1, titkilagich-qoziqchali tozalash barabani 2, uning tagidagi to'rli sirt 3, ikkita asosiy arrali barabanlar 4, tozalangan chigitli paxtani arrachali baraban tishlaridan ajratib oluvchi cho'tkali barabanlar 5 va chigitli paxta bo'laklarini arra tishlariga bosish cho'tkalari 6 dan iborat. Arrachali barabanlar ostida qirgimi yumaloq shaklda bo'lgan kolosniklar 7 o'rnatilgan.

Iflos aralashmalarga qo'shilib qolgan chigitli paxta bo'laklarini ajratib olish uchun konstruktsiyasi jihatidan arrali barabanlarga 4 o'xshash regeneratsion seksiyasi 8 o'rnatilgan, iflos aralashmalarni uskuna ichidan chiqarish uchun uzatuvchi shnek o'rnatilgan. Bu tozalagichda texnologik jarayon quyidagicha bajariladi:



1.6-rasm. ChX-3M2 markali paxtani yirik iflosliklardan tozalagichning texnologik sxemasi

1-ta'minlavchi valiklar; 2-titkilovchi-tozalagich baraban; 3-to'rli sirt(yuza); 4-arrali baraban; 5-cho'tkali baraban; 6-qo'zg'almas cho'tka; 7-kolosnikli panjara; 8-arrali regeneratsion sektsiya; 9-qiya tekislik;10-asos (korpus).

-iflos aralashmalari bor chigitli paxta valikli ta'minlagichlar (1) yordamida bir tekisda qoziqchali titkilagich-tozalash barabaniga (2) uzatiladi, bu o'z navbatida chigitli paxtani mayda bo'laklarga tit kilab va titilgan chigitli paxtani to'rli sirt (3) ustidan sudrab o'tkazish hisobiga mayda iflosliklardan tozalanadi. Keyin birinchi arrali baraban (4) ga beriladi. Arrali sirt ustida chigitli paxta qo'zg'almas cho'tka (6) bilan tekislanadi va arralarning tishiga mahkamlashtiriladi.

Arra tishlariga yopishtirilgan chigitli paxta bo'laklari harakat vaqtida kolosniklarga (7) uriladi, shunda xas-cho'plar bilan chigitli paxta orasidagi bog'lanish kamayadi. Aktiv xas-cho'plarning bir qismi passiv xas-cho'plarga aylanadi va markazga qochirma kuch bilan havo ta'sirida kolosniklar orasidan tushib ketadi. Chigitli paxta arra tishlaridan cho'tkali baraban (8) yordamida ajratib olinadi va tuzilishi jihatidan shuncha o'xshash ikkinchi arrali baraban sektsiyasida tozalanish takrorlanadi, undan ajratilgan toza chigitli paxta cho'tkali baraban orqali paxtani yig'ish konveyeriga (shnegiga) uzatiladi.

Chigitli paxtani tozalash vaqtida ajratilgan iflos aralashmalar uskunalar tagida joylashtirilgan umumiy ifloslik shnegi bilan uskunalardan chiqarilib maxsus pnevmotrans-portyorlar sistemasiga beriladi.


Tozalangan chigitli paxta esa, keyingi texnologik jarayonga uzatiladi.

ChX-3M2 tozalagichning texnologik xarakteristikasi

1. Chigitli paxta bo'yicha ish unumdorligi, t/c	1-3,0
2. Tozalash samaradorligi, %	70-80
3. Ish organlarining aylanish tezligi, min ⁻¹	
a) ta'minlash valiklari	0-20
b) arrali barabanlar	400
v) cho'tkali barabanlar	800
4. Ish organlarining texnologik zazorlari, mm	
a) qoziqchalar bilan to'r orasi	14-16
b) arrali baraban kolosniklar orasi	10-12
v) arrali baraban bilan cho'tkalar orasi	1 gacha

1.2.2. Paxta tozalashning zamonaviy uskunalari.


1XP (RX-1) arrachali paxta tozalash mashinalari (1.7-rasm) to'g'ri oqimli pnevmota'minlagich, asosiy va regeneratsion arrachali barabanlar, kolosnikli panjara, ildiruvchi cho'tkalar, cho'tkali ajratuvchi baraban va ifloslikni chiqaruvchi shnekni o'z ichiga olgan bo'lib, normallashtirilgan arrachali EN.177 bo'limlarga ega. Paxta asosiy arrachali barabanga havo oqimi bilan beriladi, tozalangandan keyin esa cho'tkali ajratish barabani bilan havo oqimiga qaytariladi. Pnevmta'minlagich aylanib o'tuvchi kanalga ega va paxtani arrachali sektsiyaga bermay tranzit yo'l bilan olib ketuvchi to'siqlar bilan jihozlangan. 1XP paxta tozalash mashinasi PLPX texnologik oqimlarida qo'llaniladi.



4.7 - rasm. 1XP paxta tozalash mashinasining sxemasi

1- pnevmota'minlagich, 2- arrachali baraban, 3- ildiruvchi cho'tka,
4- kolosnikli panjara, 5- cho'tkali ajratuvchi baraban, 6- vintli
konveyer, 7- to'siqchlar.

1XK (SCh-02) qoziqchali paxta tozalash mashinalari (1.8-rasm) har qaysisi qoziqchali baraban va setkali yuzadan iborat, to'rtta normallashtirilgan EN.178 bo'limlardan iborat bo'lib, boshlanishdagi qoziqchali bo'lim EN.178.01 qo'shimcha ta'minlovchi valiklar bilan jihozlangan. Paxta qoziqchali barabanlar bilan setkali yuzalardan o'tkaziladi, bunda iflos aralashmalar ajraladi. Ikkita qoziqchali blok iflos aralashmalarni chiqaruvchi bunker bilan birgalikda tozalash sektsiyasini tashkil etadi va uni mustaqil ravishda qo'llash mumkin.




1.8- rasm. 1XK paxta tozalash mashinasining sxemasi

1- boshlang'ich me'yorlashtirilgan qoziqchali bo'lim EN. 178.01 (ta'minlovchi valiklar bilan); 2- ustun, 3- me'yorlashtirilgan qoziqchali bo'lim EN. 178.02; 4- ustun, bunker.

1XK (SCh-02) qoziqchali paxta tozalash mashinalari bitta – qatorlarga jamlanib, ikkita – PLPX texnologik oqim tarkibida, uchta – UXK paxta tozalash ageratlar bilan birlashtirilgan xolda qo'llaniladi.

UXK paxta tozalash agregati (1.9- rasm) to'rtta tozalash bo'limiga ega bo'lib, boshlanishida UXK.01 ikkita oraliqdagi UXK.02 va oxirida UXK.03 kiradi, oralig'iga ular bilan birgalashtirilgan tegishlicha to'rtta EN.178 bo'limlar o'rnatilgan. Tozalash bo'limlari har biri qoziqchali blok yeN.178 (boshlang'ich sektsiya EN.178.01) ga, ikkita cho'tkali ajratuvchi barabanga ega bo'lgan cho'tkali bo'limga

va arrachali sektsiya EN.177 ga ega. UXK paxta tozalash agregatlari ko'p yoki oz miqdordagi sektsiyalarga ega bo'lishlari mumkin. Kiyin tozalanuvi paxta selektsiyalarini tozalash uchun boshlang'ich va so'nggi sektsiyalariga bittadan 1XK paxta tozalash mashinalarini birlashtirish tavsiya etiladi.




1.9- rasm. UXK paxta tozalash agregatining sxemasi

- 1- UXK. 01. boshlang'ich ta'minlovchi valikli bo'lim;
2- UXK. 02. ikkita oraliq bo'lim; 3- UXK. 03. yakuniy bo'lim.

Shuningdek UXK paxta tozalash agregati qatorli yig'ilgan komplekslar yoki tozalash bo'limlarida PLPX texnologik oqim o'rniga, hamda rekonstruktsiyalangan paxta tozalash korxonalarining bosh bo'limlarida qo'llaniladi.

1RX (RX) paxta regeneratori (1.10-rasm) yarim tsilindr shaklidagi aksial pnevmota'minlagich va EN.177 arrachali bo'limdan iborat. Regenerator 1RX arrachali paxta tozalash mashinalaridan ajralib chiqqan chiqindilardagi paxtani ajratib olish uchun qo'llaniladi. Ajratib olingan paxtani yig'ib alohida qayta ishlash tavsiya etiladi.



1.10 - rasm. RX-1 paxtani regeneratsiyalash mashinasining sxemasi

1- pnevmota`minlagich, 2- arrachali baraban, 3- ildiruvchi cho'tka, 4- kolosnikli panjara, 5- cho'tkali ajratuvchi baraban, 6- vintli konveyer.

Hulosa qilib aytganda yuqorida ta'kidlab o'tilgan barcha tozalash mashinalarining asosiy vazifalaridan biri paxta xom ashyosini tozalash paytida uning tabiiy hususiyatlarini yo'qitmagan holda ishlashdan iborat. Shuning uchun bitiruv malakaviy ishida mazkur muammoni hal qilish maqsadida tozalash mashinalari ustida tadqiqotlar olib borildi.

2-BOB. Paxta tozalash qurilmasi ishchi organlarini loyihalash.

2.1. Tozalash mashinalarning loyihalariga qo'yiladigan texnologik talablar

1. Ishlov berilayotgan xom ashyoga kamroq mexanik ta'sir etish maqsadida iloji boricha ishchi barabanlar sonini kamaytirish bilan bir vaqtda yuqori tozalash samaradorligini ta'minlash.

2. Texnologik mashinaning tozalash samaradorligi yuqori darajada bo'lib, uning ish unumdorligi oshirilganda kamayib ketishiga yo'l qo'ymaslikka erishish.

3. Tozalash jarayonida tola va chigitning tabiiy xususiyatlariga salbiy ta'sir etmaslik.

4. Yuqori tozalash samaradorlikni ta'minlagan holda yuqori ish unumdorlikka erishish.

5. Tozalash jarayonini avtomatik boshqarish tizimini yaratish.

Tozalash mashinalari ishlov berilayotgan xom ashyoga ta'sir etish uslubiga qarab asosan to'rtta turga bo'linadi.

1. Zarba ta'sirida tozalash turi. Ushbu asosan qoziqchali barabanli tozalash mashinalari kiradi. Ular tarkibiga 6A-12M, SCh-02, 1XK belgili tozalagichlar kiradi.

2. Tarash uslubida tozalash turi. Ushbu turga asosan arrachali barabanli tozalash mashinalari kiradi. Ular tarkibiga asosan ChX-3M, ChX-5, RX-01, 1XP belgili tozalagichlar kiradi.

3. Havo oqimi ta'sirida tozalash turi. Ushbu turga tozalash kuchi havo bosimi asosida hosil qilinadigan separatorlar, chigit tozalash moslamalari, tosh ushlagichlar va kondensorlar kiradi.

4. Murakkab uslub asosida tozalash turi. Ushbu turga yuqoridagi turlarning ikki yoki uch uslubida ishlov beriluvchi xom ashyoga birgalikda ta'sir etish asosida tozalash turi kiradi.

Asosiy ish organi bo'lgan barabanning umumiy ko'rinishi 2.1-rasmda keltirilgan. 2.1-rasmda baraban tarkibidagi ishchi valiklarning turlari keltirilgan. Ular asosan uch xil turdan iborat bo'ladi: o'zgarmas kesimli, o'zgaruvchan kesimli hamda

quvursimon kesimli. Baraban konstruksiyasiga ko'ra asosan ikki turda bo'lib, ularning birinchisi arrachali, ikkinchisi esa qoziqchali.

Qoziqchali baraban paxtani mayda iflosliklardan tozalash mashinalarida qo'llaniladi. Barabandagi qoziqchalar balandligi quyidagicha bo'ladi: 25, 30, 40, 50 mm. Barabanning qoziqcha balandligi bilan birgalikdagi diametri esa – 200, 250, 300, 400 mm bo'ladi.

Barabanning ishchi uzunligi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$l_u = \frac{Q}{3600 \cdot V(h+a) \cdot \rho \cdot K_v}$$

bu erda: Q -barabanning ish unumi, kg/s;


V -barabanning chiziqli tezligi m/s;

h -qoziqcha balandligi, $h=(0,05...0,06)$ m;

a -qoziqcha bilan to'rli sirt o'rtasidagi oraliq, $a=(0,016...0,018)$ m.;


ρ -paxtaning qoziqchali barabandagi zichligi, kg/m³;

K_v -to'rli sirtida paxtaning haqiqiy chiziqli tezligini hisobga oluvchi koeffitsient, $K_v=0,5$.



2.1-rasm. Baraban va valning ko'rinishi.

2.2-rasmda “qoziqchali baraban-paxta-to’rli sirt” sistemasida vujudga keluvchi kuchlar ko’rsatilgan.



2.2-rasm. ”Qoziqchali baraban-paxta-to’rli sirt” sistemasidagi kuchlar yo’nalishi.

1. OX va OY o’qlarga kuchlarning proektsiyasini olamiz. $\sum X = 0$ tenglamasini tuzamiz.

$$-P_3 - P_{xx} - F - G \cdot \sin \alpha + P_x = 0 \quad (2.1)$$

Bundan:

$$P_x = P_3 + P_{xx} + F + G \cdot \sin \beta$$

Endi $\sum OY = 0$ tenglama tuzamiz:

$$N + F_R - G \cdot \cos \alpha - C = 0 \quad (2.2)$$

bularda P_3 – paxta pallasining qoziqcha urilgandagi inertsia kuchi;

P_x - paxtani harakatlantiruvchi kuch;

P_{xx} - havoning qarshilik kuchi;

G - pallaning og’irlik kuchi, mg;

F - paxtani to’rli sirt bilan ishqalanish kuchi;

α – paxta pallasi markazidan o’tuvchi, qoziqchali baraban va to’rli sirtning konsentrik sirtlariga normal bilan vertikal orasidagi burchak;

S – pallaning markazdan qochma kuchi.

Paxta pallasining qoziqcha urilgandagi zarba kuchi P_3 quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$P_3 = \frac{m(1+k)V}{\Delta t}; m \frac{G}{g} \quad (2.3)$$

bu yerda m - paxta massasi;

Δt - zarba vaqti;

V - barabanning chiziqli tezligi;

k - pallaning zarbadan tiklanish koeffitsienti.

Havoning palla harakatiga qarshilik kuchi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$P_{xk} = f \cdot \varphi \cdot \frac{V^2}{2g} \cdot \gamma_x \quad (2.4)$$

bu erda f - qoziqchalar orasidagi paxtaning midel sirti, $f = t_1(h + a)$, t_1 – qoziqchali baraban uzunligi bo'yicha joylashgan qoziqchalar qadami;

φ - havoning qarshilik koeffitsienti, $\varphi = 1,1$;

γ_x - havoning zichligi, $\gamma_x = 1,24 \text{ kg/m}^3$;

g - erkin tushish tezlanishi, $g = 9,81 \text{ m/s}^2$.

(5.2) tenglamadagi mavjud ishqalanish kuchlarini palla og'irligi G orqali ifodalab, hamda (5.3) tenglamadan foydalanib, paxtani harakatlantiruvchi kuch uchun quyidagi tenglamani hosil qilamiz:

$$P_x = \frac{P_3 + P_{xk} + G \cdot \sin \alpha + G \mu \cos \alpha + m \omega^2 r \mu}{1 + \mu \cdot \mu_k} \quad (2.5)$$

Burchak $\alpha = 90^\circ$ bo'lganida, harakatlantiruvchi kuch maksimal qiymatga erishadi:

$$P_{x(\max)} = \frac{P_3 + P_{xk} + G + m \omega^2 r \mu}{1 + \mu \cdot \mu_k} \quad (2.6)$$

bunda μ - paxta bilan to'rli sirt orasidagi ishqalanish koeffitsienti.

M μ_k - paxta bilan qoziqcha orasidagi ishqalanish koeffitsienti;

r - baraban radiusi.

Ma'lumki, markazdan qochma kuch C quyidagicha ifodalanadi:

$$C = m\omega^2 R$$

bu yerda m - pallaning massasi, $m = G/g$;

ω - barabanning burchak tezligi, $\omega = \pi/30$;

R – pallaning aylanma harakat yo'li radiusi bo'lib, baraban radiusi r_b va uning sirti bilan palla og'irlik markazi masofa r_n ning yig'indisi $r_b + r_n = R$ ga teng.

Zarba kuchini aniqlash ifodasidagi tiklanish koeffitsienti k esa quyidagi formuladan aniqlanadi.

$$k = \frac{U_B - U_{II}}{V_B - V_{II}} \quad (2.7)$$

Bunda: U_B, U_{II} - zarbaning ohiridagi baraban va pahta bo'lagining chiziqli tezliklari, m/s.

V_B, V_{II} - zarbaning boshidagi baraban va pahta bo'lagining chiziqli tezliklari, m/s.

Tiklanish koeffitsientining tajribaviy qiymati $\cong 0,23$ ga teng.

2.2. Cho'tkali barabanni hisoblash

Tozalash mashinasida arrachali barabandan paxtani ajratib olish uchun maxsus cho'tkali baraban qo'llaniladi. Uning asosiy ko'rsatkichlarini hisoblab chiqamiz. 2.3-rasmda cho'tkali baraban bilan arrachali baraban o'zaro joylashishi sxemasi keltirilgan. Cho'tkali barabanni 1 minutdagi aylanishlar soni quyidagi formuladan aniqlanadi.

$$n_r = \frac{2\pi m_a}{z \cdot \arcsin \frac{R_r}{R_r + R_a} \sqrt{1 - \left[\frac{R_r^2 + (R_a + a)^2 - (R_r - R_a)^2}{2R_r(R_a + a)} \right]}} \quad (2.8)$$

$$R_1 = R_a + a$$

Sarf etiladigan quvvat quyidagi formuladan aniqlanadi

$$N = \frac{(P_{sk} \cdot z + P_3) \cdot V}{102\eta} \quad (2.9)$$

$$P_{\text{sk}} = f_M \cdot \varphi \cdot \frac{V^2}{2g} \gamma_x; \quad V_r = 1,75V_a; \quad z = \frac{360\omega_{AB}}{2(\beta_1 \cdot \omega_{xB} - \beta_2 \cdot \omega_{AB})} \quad (2.10)$$

z – plankalar soni

Zarba kuchi quyidagicha aniqlanadi:

$$P_3 = \frac{S}{\Delta t} = \frac{G}{g \cdot \Delta t} (1 + K)(V_r - V_a) \quad (2.11)$$


Bitta cho'tka plankasiga to'g'ri keluvchi paxta miqdori quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$G = \frac{Q}{60n_z} = \frac{3000}{60 \cdot 400 \cdot 12} = \frac{1}{24} = 0,04 \text{ kg} \quad (2.12)$$

bu yerda z – cho'tka plankalari soni (aylana bo'yicha)

n – aylanishlar soni (arrachali baraban)

G – ish unumi, kg/s.



2.3-rasm. Arrachali baraban bilan cho'tkali barabanni o'zaro joylashish sxemasi.

Bularda: R_q – cho'tkali baraban radiusi;

R_a – arrachali baraban radiusi;

z – plankalar soni;

n – arrachali barabanning 1 minutdagi aylanishlar soni;

P_3 – zarba kuchi;

$\omega_{c\sigma}$ – cho'tkali barabanni burchak tezligi;

$\omega_{a\sigma}$ – arrachali barabanning burchak tezligi;

G – bitta cho'tka plankasiga to'g'ri keluvchi pahta miqdori.

(2.12) bo'yicha:

$$P_3 = \frac{0,04}{9,81 \cdot 0,01} (1 + 0,23)(12 - 8) = 2,952 \text{ kg}$$

(2.11) dan:

$$P_{\text{sk}} = 2 \cdot 0,05 \cdot 1,1 \cdot \frac{12^2}{2 \cdot 9,81} \cdot 1,2 = 0,924 \text{ kg}$$

U holda:

$$N = \frac{(0,924 \cdot 12 + 2,952) \cdot 12}{102\eta} \approx 0,5 \text{ kVt}$$

Zarba impulsi esa quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$S = m(1 + K)(V_b + V_n) \sin \alpha \quad (2.13)$$

m – zarba ta'siridagi paxta massasi;

V_b – barabanning chiziqli tezligi;

V_n – paxtaning chiziqli tezligi.

Ma'lumki, cho'tkali barabanning asosiy vazifasi arrachali baraban tishidan unga ilashgan paxta bo'lagini ajratib olishdan iborat. Buning uchun cho'tkali baraban tezligi arrachali baraban tezligidan katta bo'lishi shart. Bu bog'lanish amalda quyidagicha bo'ladi.

$$\begin{aligned} V_{x.b} &= 1,75 \cdot V_{a.b} \\ V_{a.b} &= (7 \div 9) \text{ m/s} \end{aligned} \quad (2.14)$$

Shu farqning hisobiga ular orasida zarba ro'y berib, uning impulsi quyidagicha aniqlanadi, (2.4-rasm)


$$S = \frac{J_1 \cdot J_2 (\omega_1 - \omega_2)}{J_2 \cdot d_2 + J_2 \cdot d_0} (1 + K) \quad (2.15)$$

Bu erda: J_1 – paxta bo'lagining inertsiya momenti;

J_2 – cho'tkaning inertsiya momenti;

ω_1 – cho'tkali barabanning zarba boshidagi burchak tezligi;

ω_2 – paxta bo'lagining zarba boshidagi burchak tezligi.



2.4-rasm. Umumiy harakatlanish yo'nalishi:

R_a – arrachali baraban radiusi.

$$d_0 = R_a + b - c \quad (2.16)$$

d – cho'tka bilan baraban orasidagi masofa.

c – tishning uchi bilan paxta bo'lagining og'irlik markazi orasidagi masofa.

K – zarbadan tiklanish koeffitsienti.

Tozalash mashinasida asosiy ishchi organlaridan biri kolosnikdir. Uning bikrligi asosiy rol o'ynaydi. Uni belgilovchi ko'rsatgich salqilikdir.

Kolosnikning salqiligi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$Y = \frac{5 \cdot q \cdot l^4}{384El} \quad (2.17)$$

bu yerda q – tekis yoyilma kuch;

l – kolosnikning ishchi uzunligi;

E – kolosnik materialining elastiklik moduli;

K – kolosnik ko'ndalang kesimi inertsiya momenti.

Ruxsat etilgan salqilik kattaligi:

$$Y = (0,001...0,002)l_i \quad (2.18)$$

2.3. Paxta tarkibidagi mayda iflosliklarni ajratib olish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari tahlili

Paxta tozalash korxonalaridagi texnologik jarayonga o'rnatilgan jihozlarning samaradorligini oshirishga, ularning uzluksiz ishlashiga xom ashyoning tarkibi sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Paxta xom ashyosi tarkibidagi og'ir aralashma uni qayta ishlash vaqtida jin va linter mashinalarining arra tishlarini shikastlanishiga, chang va tuproqlar mashinalarning moylanuvchi detallarini tez ishdan chiqishiga hamda organik iflosliklar esa tolaning sifatini pasayishiga olib keladi.

Paxtani tarkibidagi iflosliklarni ajratib oluvchi mashinalar unumdorligi va samaradorligini oshirish soha olimlari va ishlab chiqarishdagi mutaxassislarining diqqat e'tiborida bo'lgan va ularni takomillashtirish yo'llarini qidirganlar.

Paxta xom ashyosini tozalash texnologiyasi va texnikasini kompleks o'rganishni avvalga yillarda B.A.Levkovich, S.D.Boltaboev, A.N.Nuraliev, S.A.Samandarovlar tadqiqotlarida ko'rish mumkin. Tozalashning texnika va texnologiyasini rivojlantirishda YE.F.Budin, Yu.S.Sosnovskiy, R.Z.Burnashev, G.I.Miroshnichenko, A.Jo'raev, A.E.Lugachev, A.Agzamovlarning ishlari ham muhim o'rin tutadi.

Paxta xom ashyosini quritish va tozalashning optimal texnologik rejimlarini va kattaliklarini tadqiq qilish maqsadida «Paxtatozalash» IICHB, TTESI va TGSKB olimlari tomonidan qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Bajarilgan ilmiy va eksperimental tadqiqotlar paxta xom ashyosini qayta ishlash, paxta namligining optimal asosini aniqlash imkonini yaratdi. Ular tomonidan tavsiya etilishicha, 9% dan ortiq namlikdagi paxtani qayta ishlashda oqim liniyasida tozalash unumdorligining kamayishi, tola nuqsonlari va ifloslik darajasining ko'payishi kuzatildi [2, 3, 4, 5]. Bu holat tolali massa va iflosliklarning yopishish xususiyatini oshirish orqali asoslanadi va tozalash jarayonining qiyinlashishiga olib keladi.

A.I.Uldiyakov, ye.F.Budin va S.A.Samandarovlar [2] tadqiqotlarida ko'rsatilishicha, tozalash jarayonida paxta xom ashyosining optimal namligi 8-9% hisoblangan.

Amaliyotdan ko'rinadiki, 8-9% dan ortiq namlikdagi paxta xom ashyosini qayta ishlashda tola sifati yomonlashadi va texnologik mashinalarning tozalash unumdorligi pasayadi.

Paxta xom ashyosini tashish va uni iflos aralashmalardan tozalash jarayonlarida, tozalagichlarning ishchi organlari bilan ko'p marotaba mexanik ta'sirlari paxta xom ashyosi chigitlarining mexanik shikastlanishiga sabab bo'ladi [3]. Buning natijasida tola tarkibida har xil nuqsonlar hosil bo'ladi. Shu bilan birga quritish-tozalash tsexlari texnologik mashinalarining ustivor ishlashi buziladi va paxta xom ashyosining fizik-mexanik xossalari yomonlashadi.

«Paxtakor» paxta tozalash korxonasida, PLPX turdagi oqim liniyasida o'tkazilgan ishlab chiqarish sinovlaridan [4], paxta xom ashyosi 8-9% namligida oqim liniya texnologik mashinalari ustivor va maksimal tozalash unumdorligi bilan ishlagan. Birinchi nav paxta xom ashyosini qayta ishlashda, tozalash unumdorligi 90% ni, past navlarda 80-85% ni tashkil etadi. Uzilishlar va iflos aralashmalarning miqdori birinchi navlarda 2,5%, past navlar uchun 7,2%. Barcha variantlarda tolaning namligi 6% atrofida bo'lgan.

M.A.Abduraimov [5] tomonidan 7-10% namlikdagi paxta xom ashyosini tozalash va quritishning optimal parametrlarini aniqlash maqsadida keng tadqiqotlar o'tkazilgan. Tadqiqotlar natijasida, paxta xom ashyosini tozalashning optimal namligi aniqlandi – 9-10%. Bunda texnologik mashinalar ustivor va jihozlarning tozalash unumdorligi yuqori (90-92%) bo'lgan, uzilish va iflos aralashmalar miqdori davlat standarti chegaralaridan oshmagan. Tola namligi esa 6% atrofida bo'lgan.

R.E.Uzoqov, M.A.Alievalarning quritish-tozalash tsexlardagi texnologik jarayonni tahlil qilishlarida, tozalash jarayonida paxta xom ashyosi namligi 9% gacha yuqori navlar uchun, past navlar uchun esa 15% gacha deb tavsiya qilingan.

[6,7,8] ishlarda mualliflar, tozalagichlarning unumli ishlashi uchun o'rta tolali paxta xom ashyosining namligini 5-6% gacha yetkazish, arrali jinlardan oldin esa 7-8% gacha, ingichka tolali navlar uchun valikli jinlashda 6,5-7% bo'lishi kerakligi tavsiya etilgan.

[9] ishda ko'rsatilishicha, ifloslik va o'lik bo'yicha texnologik jihozlarni tozalash unumdorligi paxta xom ashyosining namligini 2-nav uchun 7,4 dan 9,0% gacha va 7,9 dan 9,3 %gacha 3-nav uchun oshirilganda 6% (2-nav) ga va 3,1% (3-nav) ga kamayganligi ko'rindi.

Ifloslik va o'lik bo'yicha tozalash unumdorligining pasayishi, ma'lum oraliqda nam tola tozalash intensivligining oshishi hisobiga yeyishib ketadi, ya'ni 2-nav paxta xom ashyosi namligining oshishi (7,4 dan 9,2% gacha) bir marta tozalashdan so'ng tozalash unumdorligi bo'yicha farq 6,8% ga, ikki martalik tozalashda esa tegishli ravishda 6,0 va 6,8%. 3-nav paxtani tozalashda bu farq jinlashgacha 6,2% ga kamayadi, tola tozalashdan so'ng 1,4 gacha kamayganligi ko'rsatilgan.

S.A.Fozilov va Sh.X.Abdazimovlar [10] paxta tozalash mashinasi samaradorligiga asosiy ishchi organlarni ta'sirini o'rganish maqsadida ko'p barabanli tozalagichda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borganlar. Ko'p barabanli tozalash mashinalarining ishchi organlari bir xilligi tozalash samaradorligini pasayishiga olib kelishini aniqlaganlar. Bu kamchilikni bartaraf etish maqsadida kolosnikli panjaralar ustida tadqiqotlar o'tkazib, eng samarali kolosnik shaklini 3 ta dumaloq va 3 ta pichoqsimon shaklda ketma-ket o'rnatish taklif etilgan. Bunda tozalash samaradorligi 65% oshishi aniqlangan.

Paxta tozalash mashinalari asosiy ishchi organlarini takomillashtirish orqali tozalash samaradorligini oshirish mumkin. Shuning uchun A.Sultanmuratov, A.G'ofurov, A.Jo'raevlar [11] tozalash mashinasining asosiy ishchi organi hisoblangan qoziqli baraban konstruktsiyasini takomillashtirish maqsadida izlanishlar olib borganlar. Natijada qoziqli baraban qoziqlarining eng samarali shakllarini taklif etganlar hamda ishlab chiqarishga joriy etganlar.

A.B.Moshenkov va X.K.Tursunovlar [12] tozalash barabani va to'rli sirtlar orasidagi masofani tozalash samaradorligiga ta'sirini o'rganib, yangi kolosnik formasini ishlab chiqdilar hamda kolosniklar orasidagi masofalarni qisqarishi tozalash samaradorligini oshishiga olib kelishini isbotlaganlar.

A.Umarjonov, K.Tojiev, A.Jo'raevlar [13] paxtani tozalash bo'yicha bir qator ilmiy izlanishlar olib borib, kolosnikli panjara va to'rli sirtlarga tebranma, aylanma

yoki ilgari lanma-qaytma harakatda bo'lishi, paxta tozalash samaradorligini keskin oshishiga olib kelishini aniqlaganlar.

A.Safaev [14] olib borgan tadqiqotlari paxtani tozalash jarayonida unga bir xil mexanik ta'sir ko'rsatilishi tozalash samaradorligini kamayishiga sabab bo'lishini aniqlagan. Bu muammoni bartaraf etish maqsadida tozalash barabani qoziqlarini har xil shaklda tayyorlashni taklif etgan. Natijada paxta xar xil traektoriyada harakatlanishi, shuningdek, samaradorlik oshishini isbotlagan.

R.V.Karabelnikov [15] xom-ashyoni tozalash vaqtida paxta tozalash mashinalari barabanlarining aylanish tezligining chigit shikastlanishiga ta'sirini nazariy yo'l bilan o'rgangan. Zarba olayotgan jismning harakat tenglamasini tuzish va yechish orqali chigitni to'la shikastlanishi mumkin bo'lgan kuch miqdorini aniqlash imkoniga ega bo'ldi. Bu ish natijasiga ko'ra mualliflar paxtani tozalovchi barabanning tezligi 3,5 m/s, chigitning shikastlanishi 0,2%, 6,9 m/s bo'lganda 1,0%, 10 m/s bo'lganda 2,8% tashkil qilishini aniqladi. Chigitni to'la shikastlanishi baraban tezligi 55 m/s dan katta bo'lganda hosil bo'lishini topgan.

R.V.Karabelnikov va boshqalar [16] tomonidan paxtaning tarkibidagi iflosliklarni holatiga qarab aktiv va passivga bo'ldilar. Aktivga katta o'lchamdagi iflosliklar misol qilgan. Ular paxtaning yuzasida joylashgan bo'lib, kuchsiz bog'langan bo'ladi.

Mayda iflosliklar paxta massasining ichiga kirib olgan bo'lib, ularni ajratib olish ancha qiyin bo'ladi. Mualliflar paxta bo'lakchasini ma'lum bir nuqtaga mahkamlangan va o'z atrofida tebranadigan fizik mayatnik shaklida o'rganganlar. Mayatnik tebranishini ifodalovchi differentsial tenglama tuzilgan. Uni yechish natijasida shunday xulosa chiqadi: vaqt o'tishi bilan tebranish burchagi va amplitudasi oshib borsa, u holda paxta bo'lakchasida turg'unmas holat yuz beradi. Bunday holat yuz berganda paxta bo'lakchasidan iflosliklarni ajralib chiqib ketishi mumkinligi ko'rsatilgan.

Muallif [17] tozalash mashinalari kolosniklariga tebranma harakat berib paxta bo'lakchasidan iflos aralashmalarni ajralib chiqib ketish jarayonini tekshirish natijalarini maqolada keltirgan. Unda mashinalarning tozalash samaradorligini uning

kolosniklarini elastik asosga o'rnatib, tebrantirib oshirish mumkinligini nazariy yo'l bilan o'rgangan.

Tebranma kolosniklarning holatini ifodalovchi differentsial tenglama tuzilgan. Ana shu differentsial tenglamani yechib, elastik asosga o'rnatilgan kolosnikning tebranish amplitudasini aniqlash imkonini beradigan formula hosil qilingan.

A.E.Lugachev [18] o'zining ilmiy ishida paxtani tarkibidagi mayda iflosliklarni ajratib olishda yangicha usulni qo'llagan. Birinchi qoziqli barabanga nisbatan ikkinchi qoziqli barabanni pog'ana qilib o'rnatgan. Qoziqli barabanlarning bunday joylashishi baraban atrofida hosil bo'luvchi havo bosimini o'zgaruvchan bo'lishiga olib keladi. Bunday o'zgarish natijasida paxtani tarkibida mayda iflosliklar ko'proq ajralib chiqib ketadigan sharoit hosil bo'ladi.

M.J.Koshakova [19] tomonidan paxtaning tarkibidagi iflosliklarni tebranish yordamida ajratib olish jarayonini o'rganish maqsadida maxsus qurilma tayyorlandi. Bu qurilmada harakatlanayotgan ishchi kameraning tebranish chastotasi $0\div 1500$ ayl/min gacha o'zgarishi mumkin bo'lib, tebranish amplitudasi esa $4,8\div 10$ mm gacha o'zgaradigan qilib tayyorlangan.

Shuningdek, ishchi kamerani vertikal va gorizontal yo'nalishlarda tebranadigan qilib tayyorlangan. Kuzatishlar natijasida muallif qurilmaning ishchi kamerasida joylashgan paxta massasini tebranish ta'sirida uni deformatsiyalovchi to'lqin tarqalishini kuzatgan.

To'rli yuzada joylashgan paxtaning pastki qatlamida tebranayotgan qismi o'zining kinetik energiyasini yuqori qatlamiga beradi. Natijada, yuqori qatlam ham harakatlana boshlaydi. Bunday jarayon paxtaning titilishiga sabab bo'ladi. Natijada paxtaga yopishgan g'uborlar chiqib ketadi. O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida muallif amplituda $A=10$ mm, tebranish chastotasi $85\div 100$ rad/sek bo'lganda tozalash samaradorligini yuqori bo'lishiga erishgan.

Paxtani dastlabki ishlashda paxta xom ashyosining namligi muhim o'rin tutadi. Bu holatga amerikalik olimlar katta e'tibor qaratadilar. AQShning qishloq xo'jaligi departamenti ilmiy tadqiqot laboratoriyalari tomonidan oxirgi vaqtlarda tola sifati,

uni quritish, tozalash, jinlash va tola tozalashning ta'sirini o'rganish bo'yicha katta ishlar olib borildi [20,21,22,23,24,25].

Paxta xom ashyosini keragidan ortiq quritish tolani jinlash va tozalashda uning shikastlanishiga olib kelish fikri isbotlandi. AQSh olimlari tola namligi 6,5-8% deb belgilashdi.

Ayni vaqtda qayta ishlashning texnologik zanjiri tozalash unumdorligi talablariga javob bermaydi. Bu paxta xom ashyosining iflosligi va namligining oshib ketishi bilan bog'liq bo'lib, hosilning mexanik yig'ib olinishi va paxta tayyorlash unumdorligini oshirish tufayli bo'lmoqda.

Yuqori tozalash unumdorligiga quritish va tozalash jarayonini qayta tozalash orqali erishilmoqda. Bu esa o'z navbatida energiya va material sarfini oshiradi. Ikkinchi tomondan paxta tolasi va chigitining tabiiy xususiyatlari yomonlashib, iflos aralashmalar tarkibida, tolaning chiqib ketishiga sabab bo'ladi. Sifat ko'rsatkichlarining yomonlashishi, tozalagich ishchi organlarining salbiy ta'siri hisobiga sodir bo'ladi.

Ayniqsa tozalash jarayonida sifat ko'rsatkichlarni maksimal darajada saqlash uchun imkoniyat darajasida mexanik ta'sir hamda tozalashlar sonini kamaytirish lozim deb hisoblaymiz.

2.4. Yangi tozalash qurilmasining texnologik parametrlarini aniqlash

Tola qanchalik sifatli bo'lsa, ip shunchalik mustahkam va unda ishlab chiqarilgan mahsulot shunchalik mayin bo'ladi. Paxtani yetishtirish va terib olish bizga ma'lumki tabiiy sharoitda ya'ni dalada o'tkaziladi. Buning natijasida paxta tolasi tarkibida turli iflosliklar (chang, qum, g'o'za, barg va shohlari, o't urug'i va bo'laklari) mavjud bo'ladi. Bularni toladan ajratib olish ularni tola bilan oson, ayrimlarini ajratish qiyin bo'ladi. Shuning uchun paxta tozalash zavodlarida paxtani tozalash va jinlash jarayonida arrala, qoziqli barabanlar va to'rli, kolosnikli sirtlardan foydalaniladi.

Qoziqli, arrali barabanlar paxtani titish uchun asosan xizmat qiladi. Baraban arralari va qoziqlari paxta bilan ta'sirlanishi natijasida chigitni shikastlanishiga olib keladi. Bu esa tola sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, uning narhini pasaytiradi.

Barabanlarni harakatlanishi uchun ko'p energiya sarflanishi esa paxta tozalash korxonalaridan energiya sarfini ko'payishiga olib keladi.

Tola sifatining yuqoridagi holda buzilish sababli keyingi ishlab chiqarish jarayonlarida ham mahsulot sifatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib, loyihada paxta tozalash jarayonining samarasini oshirish uchun paxta tozalash mashinalarini barabansiz, ya'ni qo'shimcha mexanik ta'sirsiz va yuqori samara beradigan konstruksiyalar yaratish va ishlab chiqarishga joriy qilinishini yengillashtirish ko'zda tutilgan.

Bugungi kunda paxta tozalash zavodlarida paxtani yetarli darajada tozalashga, tolaning sifatini Davlat standartlari talabiga javob beradigan qilib chiqarishga alohida e'tibor berilmoqda.

Bunda jinlarning normal ishlashini ta'minlash maqsadida paxta quritiladi va tozalanadi paxtani mayda iflos aralashmalardan tozalashda gorizontal tekislikda ketma-ket o'rnatilgan qoziqli barabanlardan foydalaniladi. Qoziqli barabanlar ostiga g'alvirsimon to'r o'rnatilgan bo'lib, paxtani tozalash vaqtida ular orqali mayda chiqindilar ajralib chiqadi. Paxtani yirik iflosliklardan tozalash uchun tozalash mashinasining arrali barabanidan foydalaniladi. bu arrali baraban tishlariga paxta qo'zg'almascho'ntaklar yordamida ilashtirib beriladi va qo'zg'almas kolosniklarga urilib yirik iflosliklardan tozalanadi. Qiyin tozalanadigan paxta navlarini tozalashda zavodlardagi mavjud tozalash mashinalarini yetarlicha tozalash imkoni bo'lmaydi. Shuning uchun texnologik jarayonga qo'shimcha tozalash mashinalarini o'rnatish talab qilinadi.

Bunday hollarda paxtaga ko'rsatilgan ta'sir oqibatida paxta tolasi va chigitining tabiiy xususiyatlari buzila boradi va sifat ko'rsatkichlari pasayadi. Bu ishda qurilmada paxtaning to'rli yuzadagi tebranma harakatini samarali ishlashini ta'minlaydigan texnologik o'lchamlar aniqlanadi.


Hozirgi vaqtda paxta terishda faqat qo'l terimidan foydalanilayotgan ligini hisobga olinsa, bu qurilmani ishlatish har tomonlama maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu mashina konstruksiyasini yasash, uni ishlatish va ta'mirlash qulayligi, arzonligi bilan boshqa tozalash mashinalaridan farqlanadi. Loyihaning maqsadi tebranma to'rli

yuzani tajribadan o'tkazish va eng qulay texnologik o'lchamlarni aniqlab, ishlab chiqarishga joriy qilishdan iborat. Bu qurilmada paxta vertikal joylashgan ishchi kamerada mayda iflosliklardan tozalanadi. Unda o'rnatilgan qiya pog'onali to'rli yuzalar paxtani ag'darib harakatlanishini ta'minlaydi. Shuningdek, qiya to'rli yuzalarga tebranma harakat berish yo'li bilan uning samaradorligini oshirish mumkin bo'ladi.

Qurilma mavjud qurilmalardan butunlay farq qilsada, uning konstruksiyasini yasash ancha sodda va qulay. Bu mashina paxta chigitni va tolasi sifatiga salbiy ta'sir qilmaydi va paxtani mayda iflosliklardan samarali tozalaydi.

Biz taklif qilayotgan qurilma (2.5-rasm) asosan quyidagi elementlardan tashkil topgan, paxtani kirish (1) va chiqish (7) quvuri, paxta harakatlanuvchi qarama-karshi o'zaro 90° burchakli to'rli sirtlar (2) va o'zaro qarama-qarshi 90° qiyalikda joylashtirilgan to'rli sirt bilan sharnirlar yordamida biriktirilgan iflosliklarni ajratuvchi sirt (3). Tashqi sirt bilan pog'onali sirtlar orasidagi iflosliklar kamerasi (4) va iflosliklarni tashqariga chiqarish qismi (5). Shu bilan birga tozalash samaradorligini oshirish maqsadida o'rnatilgan to'rli sirtni tebratuvchi kulachok (6).

Taklif qilinayotgan qurilma quyidagicha ishlaydi: Paxta kirish kuvuri (1) dan bir tekisda birinchi to'rli sirt (2) ning birinchi pog'onasiga tushadi. U yerdan paxta o'z og'irligi bo'yicha to'rli sirt (2) ning birinchi pog'onasiga qarama-karshi bo'lgan pog'onaga tushadi va bu pogonaning tebranish chastotasi birinchi pog'onadan 1, 2 marotaba katta bo'ladigan qilib, kulachok yordamida oshiriladi. Tozalash jarayoni to'rli sirt (2) ning oxirgi pog'onasigacha davom etadi. Tozalash jarayonining samarasi to'rli sirt pog'onalarining keyingisi oldingisidan tebranish chastotasining oshib borishi hisobiga oshadi. Paxtadan ajralgan iflosliklar iflosliklarni ajratuvchi sirt (3) orqali iflosliklar kamerasi (4) ga tushadi va iflosliklarni chiqarish qismi (5) orqali tashqariga chiqariladi. Paxta esa chiqish kuvuri (7) orqali keyingi jarayonga uzatiladi.



2.5-rasm. Paxtani vertikal usulda tozalovchi qurilma sxemasi

Mazkur qurilmani ishlab chiqarishga joriy qilish orqali korxona qo'shimcha hamda mexanik ta'sirlarsiz tozalash natijasida sezilarli iqtisoiy samaradorlikka erishishi mumkin. Bundan tashqari qurilmani ishlab chiqarish sodda va har qanday texnologik jarayonga moslashtirish mumkin.

Paxtani dastlabki ishlash jarayonida paxta xom ashyosi turli shakldagi yuzalar ustida harakatlanadi. Bu yuzalarning materiali, holati va geometrik shaklidan kelib chiqib paxtaga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Quyida paxta bo'lakchasining uni tozalovchi qiya to'rli yuzadan harakatlanishini o'rganib chiqamiz (2.6-rasm).

Paxta bo'lakchasining to'rtli yuza bo'ylab tekis harakati differentsial tenglamasini Lagranj printsipligiga asosan tuzamiz:

$$m\ddot{x}_c = \sum X = G_x + F_u + P \quad (2.19)$$

$$m\ddot{y}_c = \sum Y = N - G_y \quad (2.20)$$

$$I_c\ddot{\phi} = \sum M = -F_u \cdot R \quad (2.21)$$

Qo'shimcha bog'lanish tenglamalari:

$$Y_c = R = \text{const} \quad (2.22)$$

$$\omega = \dot{\phi} = \frac{V_c}{R} = \frac{\dot{x}_c}{R} \quad (2.23)$$

$$(2.23) \text{ ni bir marta differentsiallasak: } \ddot{\phi} = \frac{\ddot{x}_c}{R} \quad (2.24)$$

$$(2.22) \text{ ni ikki marta differentsiallaymiz: } \ddot{y}_c = 0 \quad (2.25)$$

(2.25) tenglamani (3) ga qo'ysak:

$$I_c \cdot \frac{\ddot{x}_c}{R} = -F_u \cdot R \Rightarrow m \cdot i_c^2 \cdot \frac{\ddot{x}_c}{R} = -F_u \cdot R \Rightarrow m\ddot{x}_c = -\frac{F_u \cdot R^2}{i_c^2} \quad (2.26)$$

(2.20) ni (2.26) ga qo'ysak

$$-\frac{F_u \cdot R^2}{i_c^2} = mg \cdot \sin \alpha + F_u + P \Rightarrow -(R^2 F_u + i_c^2 \cdot F_u) = mgi_c^2 \sin \alpha + Pi_c^2$$

$$F_u = \frac{i_c^2 \cdot mg \sin \alpha + P \cdot i_c^2}{(R^2 + i_c^2)} \quad (2.27)$$


(2.27) tenglamani (2.20) ga qo'ysak:

$$N - G_y = 0 \rightarrow N = G_y = mg \cos \alpha \quad (2.28)$$

(2.27) tenglamadan


$$F_u = -\frac{i_c^2 \cdot mg \cdot \sin \alpha}{R^2 + i_c^2} - \frac{i_c^2}{R^2 + i_c^2} P \quad (2.29)$$

Bu paxta bo'lakchasini mos (to'r) bilan hosil qiluvchi ishqalanish kuchini P ($P = \text{const}$) o'zgarmas kuchga bog'liq o'zgarishini ifodalovchi munosabatdir (2.7-rasm).



2.6-rasm. Paxta bo'lakchasining qiya to'rli yuzada harakatlanish holati

1-to'rli yuza; 2-paxta bo'lakchasi; α -yuzaning qiyalik burchagi.



2.7-rasm.

Agar $\infty \leq P \leq P_0$ da o'zgarganda $F_{uu} > 0$ - chizmadagi bilan mos keladi. Agar $P > P_0$ da o'zgarganda $F_{uu} < 0$ - chizmadagi yo'nalishga qarama-qarshi bo'ladi.

Ishqalanish kuchi moduli quyidagi shartni qanoatlantirsa paxta bo'lakchasi sirpanmasdan tebranib harakatlanadi

$$|F_u| \leq N \cdot f_u \quad (2.30)$$

(2.30) tenglamadan

$$|F_u|^* = N f_u = mg \cdot \cos \alpha \cdot f_u$$

yoki

$$|F_u|^* = mg \cdot \cos \alpha \cdot f_u \quad (2.31)$$

(2.30) va (2.31) tenglamalar bilan ifodalangan to'g'ri chiziq grafiklarini chizamiz

Ushbu grafik paxta bo'lakchasini to'rli yuza bo'ylab harakatlangandagi ishqalanish kuchi bilan unga ta'sir etuvchi R kuch orasidagi qonuniyatni ifodalaydi (2.8-rasm).

Paxta bo'lakchasini to'r bo'ylab harakatining qonuniyati differentsial tenglamasini aniqlaymiz:

$$m\ddot{x}_c = G \sin \alpha + P + (-a - b \cdot P) \quad \text{yoki}$$

$$m\ddot{x}_c = G \sin \alpha - a + P(1 - b)$$

$$\ddot{x}_c = g \sin \alpha - \frac{a}{m} + \frac{1-b}{m} \cdot P \quad (2.32)$$

Boshlang'ich shartlar: $t = 0$; $\dot{x}_c = v_o = 0$; $c_1 = 0$; $x_c = 0$; $c_2 = 0$

$$P = P_2; \quad \dot{x}_c = A \cdot t + c_1 \quad \text{dan}$$

$$x_c = A \frac{t^2}{2} + c_1 t + c_2$$

$$\text{Demak, } x_c = A \frac{t^2}{2}; \quad \dot{x}_c = v_c = A \cdot t_1$$

$$x_c = L_1 \text{ shartdan } t_1^2 = \frac{2L}{A}; \quad t_1 = \sqrt{\frac{2L}{A}}$$

bu yerda t_1 - paxta bo'lakchasini bitta yacheykani bosib o'tish uchun ketgan vaqti;

$A \cdot t_1$ - yacheyka oxiridagi paxta bo'lakchasining tezligi.

Paxta bo'lakchasining to'siq bilan zarbalanishi qonuniyati (2.9-rasm).

V_{c1} - massa markazining zarbagacha bo'lgan tezligi; V_{c2} - zarba ohiridagi tezlik.

$$L_{IID} - L_{ID} = \sum M_D(\bar{S}^T)$$

$$L_{IID} = L_{ID}$$

$L_{ID} = mV_{c1}(r - h)$ - zarbagacha paxta bo'lakchasining kinematik momenti.

Zarba so'ngida kinematik energiya:

$$L_{IID} = I_D \cdot \omega_{II}$$

bu yerda: I_D - paxta bo'lakchasining D nuqtaga nisbatan inertsia momenti;

ω_{II} - paxta bo'lakchasining zarba oxiridagi burchak tezligi.

$$L_{IID} = (I_c + mr^2)\omega_{II} = (mr^2/2 + mr^2)\omega_{II} = \frac{3}{2}mr^2 \cdot \omega_{II}$$

$$\text{va } L_{IID} = L_{ID} \Rightarrow \frac{3}{2}mr^2\omega_{II} = mv(r-h)$$

$$\omega_{II} = \frac{2v(r-h)}{3r^2} - \text{paxta bo'lakchasini to'siqni aylanib ag'darishga undovchi burchak}$$

tezligi.

D nuqtadan aylanib o'tish jarayoni uchun paxta bo'lakchasini kintik energiyasini ($II \rightarrow III$) tenglamasini tuzamiz:

$$T_{III} - T_{II} = \sum A^T$$

ko'chish D nuqta atrofida aylanish hisobiga bo'lgani uchun

$$\frac{I_D \cdot \omega_{III}^2}{2} - \frac{I_D \cdot \omega_{II}^2}{2} = -G \cdot \frac{h_0}{\cos \alpha}$$

$$\omega_{III} = \sqrt{\omega_{II}^2 - \frac{4gh}{3r^2}}$$

$$\omega_{III} = \sqrt{\omega_{II}^2 - \frac{4gh}{3r^2}} > 0 \text{ paxta bo'lakchasini } D \text{ nuqta atrofida ag'darilishdagi burchak}$$

tezligi.


$$M_D(G_x) > M_D(G_y) \Rightarrow G \cdot \sin \alpha \cdot h > G \cdot \cos \alpha \cdot r$$

paxta bo'lakchasining D nuqta atrofida ag'darilish sharti


$$\omega_{II}^2 \geq \frac{4gh}{32^2}; h \leq \frac{\omega_{II}^2 \cdot 32^2}{4g}.$$

$$h \approx \frac{32^2}{4g} \cdot \frac{4v^2}{9r4^2} \cdot (r-h)^2$$

$$3r^2hg \approx v^2(r^2 - 2rh + h^2) = v^2r^2 - 2rhv^2 + h^2v^2$$



2.8-rasm



2.9-rasm.

$$v^2 h^2 - h(3r^2 g + 2rv^2) + (vr)^2 = 0$$

$$h^2 - h \cdot \frac{2rv^2 + 3r^2 g}{v^2} + r^2 = 0$$

$$h^2 - h \cdot \left(2r + \frac{3r^2 g}{v^2}\right) + r^2 = 0$$

Ushbu kvadrat tenglamani yechib, to'rtli yuzani to'siqlarining o'lchamlarini aniqlash mumkin.

Bitiruv malakaviy ishida paxta bo'lakchasining qiya to'rtli yuzadagi harakatlanishi qonuniyatini differentsial tenglamasi tuzilgan. Shu tenglamadan foydalanib paxta bo'lakchasining bitta yacheykani bosib o'tishi uchun ketgan vaqti

hamda to'siq bilan uchrashib zarbalanish qonuniyatlari aniqlangan. Shuning bilan birga paxta bo'lakchasining to'siq markaziga nisbatan inertsia momenti aniqlangan.

Bundan tashqari paxta bo'lakchasining to'siqni aylanib o'tib ag'darilish imkonini beradigan burchak tezligini aniqlaydigan formula yaratilgan. Mazkur formuladan foydalanib paxta bo'lakchasining to'siqdan ag'darilib o'tishini ta'minlaydigan shart tenglamasi ishlab chiqilgan. Bu esa paxta bo'lakchasining qiya to'rli yuzada ag'darilib harakatlanish imkoniyatiga ega bo'lgan nazariyaning asosini tashkil qiladi.

Bu nazariyaning amaliy ahamiyati pog'onali qiya to'rli yuzalarning yaratilishini ta'minlash bilan birga paxta tarkibidagi mayda iflos aralashmalarni maksimal darajada tozalanish holatini hosil qilinishidan iborat.

3-BOB. Mehnat muhofazasi qismi.

3.1. Changdan himoyalash.

Sanoatda, transport vositalarini ishlatishda va qishlok xo'jaligida bajariladigan ishlarning deyarli hammasida chang hosil bo'lishi va ajralishi kuzatiladi. Umuman changlar, ularning kelib chiqish manbalarini hisobga olgan holda *tabiiy va sun'iy changlarga* bo'lib o'rganiladi. Ma'lumki, changlangan havo muhiti insoniyatni qadim zamonlardan beri ta'qib qilib kelgan. *Tabiiy changlar* sirasiga tabiatda inson ta'sirisiz hosil bo'ladigan changlar kiritiladi. Bunday changlarga shamol va qattiq bo'ronlar ta'sirida tuproqning erroziyalangan qatlamlarining uchishi, o'simlik va hayvonot olamida paydo bo'ladigan changlar, vulqonlar otilishi, kosmosdan yer atmosferasi ta'siriga tushib qolgan meteoritlar, kosmik jismlarning yonib ketishidan hosil bo'ladigan changlar va boshqa hollarda hosil bo'ladigan changlarni kiritish mumkin.

Tabiiy changlarning atmosfera muhitidagi miqdori tabiiy sharoitga, havoning holatiga, yilning fasllariga va aniqlanayotgan joyning qaysi mintaqada joylashganligiga bog'liq. Masalan, atmosferadagi chang miqdori shimoliy hududlarga nisbatan janubiy hududlarda, o'rmon mintaqalariga qaraganda cho'l mintaqalarida, shuningdek qish oylariga nisbatan yoz oylarida ko'proq bo'lishi ma'lum. Aniqlanishicha, har bir kubometr havo tarkibida katta shaharlar hududlarida 6000 atrofida (ba'zi bir manbalarda avtomobil vositalaridan ajralgan tutunlarni ham kiritib 30000) har xil kattalikdagi chang zarralari bo'lishi aniqlangan. Dalalar va bog'larda bu miqdor o'n marta kamayadi, tog'li hududlarda esa undan ham kamroq chang zarralari bo'ladi.

Sun'iy changlar sanoat korxonalarida va qurilishlarda insonning bevosita yoki bilvosita ta'siri natijasida hosil bo'ladi. Masalan, mashinasozlik sanoatida cho'yan ishlab chiqaruvchi domna va marten pechlarida va hamda tosh tsexlarida, issiqlik elektrostantsiyalarida yoqilgan ko'mirning ma'lum qismi kul va tutun sifatida atmosferaga chiqarib yuboriladi. Qurilish ishlarida yer qazish, portlatish, tsement ishlab chiqarish, shuningdek tog'lardan ma'danlarni qazib olish va boshqa juda ko'p

ishlarda ko'plab miqdorda chang ajraladiki, bu changlarni atrof-muhitga chiqarib yuborish tabiatga halokatli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Sanoatning ba'zi bir tarmoqlarida, masalan, kimyo sanoatida shunday havfli sanoat changlari ajraladiki, ularni tozalamasdan chiqarib yuborish fojiali holatlarni vujudga keltiradi. Kelib chiqishi bo'yicha organik, mineral va aralashma changlar mavjud. Changning zararli ta'sirining tavsifi asosan uning kimyoviy tarkibiga bog'liq. *Changning kattaligi (ya'ni dispers tarkibi) bo'yicha uch guruxga bo'lib qaraladi:*

a) kattaligi 10 mkm dan katga bo'lgan changlar *yirik chaiglar* deb ataladi. Odatda bunday changlar o'z og'irligi ta'sirida yerga qo'nadi;

b) katgaligi 10 mkm dan 0,25 mkm gacha bo'lgan changlar. Bu changlarni *mayda changlar yoki mikroskopik changlar* deb yuritiladi. Ular yerga ma'lum ijobiy sharoitlar bo'lganda, masalan, yomg'ir, qor va shabnam kabi yerga yog'ilayotgan og'ir zarralarga ilashib qo'nishi mumkin;

v) kattaligi 0,25 mkm dan kichik bo'lgan changlar ***ultra mikroskopik changlar*** deb yuritiladi va bu changlar hech qachon yerga qo'nmay, betartib harakat qilib, uchib yuradi.

3.1.1. Havo tozalash qurilmalariga qo'yiladigan asosiy talablar

Umuman sanoat korxonalarida ishlatiladigan havoni changdan tozalash qurilmalari nihoyatda ko'p va rang-barangdir. Buning asosiy sababi sanoatda hosil bo'ladigan changlarni zararsizlantirish yoki ularni havo tarkibidan ajratib olish nihoyatda mushkul vazifadir. Changlarni ajratib olishda to'qima matolar yordamida tutib qolish ishlari keng yo'lga qo'yilgan bo'lishiga qaramay, hozirgi vaqtda ishlatilayotgan qurilmalar sanoat talablariga to'la javob berolmaydi. Yirik changlarni tutib qolish yoki ajratib olish uncha qiyin emas, ularni markazdan qochma kuchga asoslangan chang tozalash qurilmalarida ajratib olish oson. Chang zarralari maydalasha borgan sari ularni ajratib olish imkoniyatlari ham kamaya boradi. Mayda changlar og'irligi uni yuritayotgan havo molekulalaridan unchalik farq qilmaganligi sababli (eng mayda zarradan ham mayda zarra mavjud degan matematik iborani

eslang), ularni markazdan qochma qurilmalar yordamida mutlaqo ajratib bo'lmaydi, to'qima matolar orqali o'tkazganda esa, mato qanchalik qalin bo'lgani bilan, undan chang o'tib ketadi. Boshqa tomondan qaraganda, qalinlashtirilgan mato orqali havoning sizib o'tishi qiyinlashadi, bu esa o'z navbatida ba'zi bir muammolarni keltirib chiqaradi.

Bu muammolarning eng asosiysi havo tozalash qurilmasi qarshiligining ortib ketishidir. Katta qarshilikka ega bo'lgan qurilma nihoyatda qimmatbaho bo'lishi bilan birga, ko'p miqdorda elektr quvvati talab qiladi.

Yuqorida aytib o'tilgan fikrlarni mulohaza qilib, havo tozalash qurilmalarini tanlashda, birinchidan, havo tarkibidagi changning tarkibini, xavflilik darajasi, mayda-yirikligi, shuningdek uning qimmatbaho moddalardan tashkil topganligini, masalan, oziq-ovqat mahsulotlaridan tashkil topgan bo'lsa, uni tozalashda yuqori samaradorlikka ega bo'lgan chang tozalash qurilmalaridan foydalaniladi. Agar chang oddiy qipiq, ko'mir changlari, metall changlari bo'lsa, bunday changlangan havoni markazdek qochma harakatga asoslangan arzon, lekin samaradorligi kamroq bo'lgan qurilmalar yordamida tozalanadi. Qurilmalaridan foydalaniladi. Agar chang tarkibida qo'rg'oshin, simob va boshqa og'ir metallar changlari mavjud bo'lsa, ma'lumki bu changlar odam organizmi uchun juda xavfli asoratlar hosil qilishi mumkin bo'lganligi sababli, ularni tozalash uchun, qimmat bo'lishidan qat'i nazar, yuqori samaradorlikka ega bo'lgan chang tozalash qurilmalaridan foydalaniladi.

Chang tozalash qurilmalarining samaradorligi quyidagi ko'rsatgichlar bilan belgilanadi.

a) havo tozalash samaradorlik darajasi quyidagi formula asosida aniqlanadi.

$$\eta = \frac{q_1 - q_2}{q_1} \cdot 100\%,$$

bunda η - havo tozalash samaradorlik darajasi, %; q_1 - tozalanmagan havo tarkibidagi chang miqdori, mg/m^3 ; q_2 - tozalangan havo tarkibidagi chang miqdori, mg/m^3 .

Havo tozalash qurilmalarini bir-biri bilan solishtirganda, ularning havoga chiqarib yuborgan chang miqdori bilan emas, balki ularning havo tozalash foizlarini yuzdan ayirib bu ayirmalarning nisbati sifatida qabul qilish to'g'riroq bo'lardi.

Chunki, agar bir chang tozalash qurilmasi havo tozalash darajasi $\eta_1=90$ va ikkinchisini yoki xuddi shu qurilma ba'zi bir qo'shimchalar yordamida $\eta_2=95$ ga yetkazildi deb faraz qilaylik, unda uning havo tozalash samaradorligi 5 foizga oshmaydi, balki $\frac{100-90}{100-95} = 2$, ya'ni 2 marta oshgan hisoblanadi.

b) Changlangan havoni o'tkazish qobiliyati, ya'ni chang tozalash qurilmasidan vaqt birligida o'tkazilishi mumkin bo'lgan changlangan havo miqdori. Odatda, chang tozalash qurilmalari orqali o'tkazilgan havo miqdori sekundlarda yoki soatlarda belgilanadi. Ya'ni changlangan havoni o'tkazish qobiliyati $L_1 \text{ m}^3/\text{s}$ yoki $L_2 \text{ m}^3/\text{s m}^2$ orqali belgilanadi.

Bunday belgilash filtrlash yuzasiga ega bo'lgan chang tozalash qurilmalariga mos keladi.

Markazdan qochma kuchlarga asoslangan chang tozalash qurilmalari (tsiklon, chang kameralari) uchun $L_1 \text{ m}^3/\text{s}$ yoki $L_2 \text{ m}^3/\text{soat}$ holatda belgilanishi mumkin.

v) Chang yig'ish qobiliyati faqat filtrlarga xos ko'rsatgich bo'lib, filtrlovchi mato orqali o'tkazilgan changlangan havo, changni matoda qoldirib, toza havo o'tib ketishiga asoslanadi. Matoda ushlab qolingani chang uning qalinlashishiga olib keladi va bu kiritilayotgan havoga qarshilikning ortib ketishiga sababchi bo'ladi.

Buni chang tozalash qurilmasining umumiy qarshiligi deb yuritiladi. Mana shu qarshilikning ortishi ma'lum miqdorgacha bo'lishi mumkin va bu changning miqdoriga bog'liq bo'lib, uni g/m^2 bilan belgilanadi. Ya'ni 1 m^2 yuzada yig'ilishi mumkin bo'lgan chang miqdori. Bu miqdori qancha katta bo'lsa, filtrni tozalab turish davri shuncha kamayadi (ya'ni filtr tez-tez tozalab turiladi).

g) havo tozalash qurilmasining aerodinamik qarshiligi, $n\text{G}\cdot\text{m}^2$ larda belgilanib, umumiy holda quyidagi tenglama orqali ifodalanadi.

$$\Delta p = AV^n, [n/\text{m}^2],$$

bunda V-havo harakati tezligi, m/s ; havo shu tezlik bilan chang tozalash qurilmasiga qiritiladi yoki filtrlovchi yuzalar orqali o'tkaziladi; A va n-chang tozalash qurilmasi tuzilishiga bog'liq bo'lgan koeffitsientlar. n-koeffitsienti miqdori 1 dan 2 gacha

o'zgaradi. Bunda havo oqimining turbulentligining o'sib borishi bilan $n \rightarrow 2$ ga yaqinlashadi.

Xulosa shuki, chang tozalash qurilmalarining a), b), v) ko'rsatgichlarning iloji boricha yuqori bo'lishi va g) ko'rsatgichining past bo'lishi chang tozalash qurilmasi mukammalroq ekanligini ko'rsatadi.

Chang tozalash qurilmalari o'zining tuzilishi va ishlash usuli jihatidan xilma-xildir. Chang havo tarkibidan o'z og'irligi asosida, markazdan qochma kuchlardan foydalangan holda, inertsia kuchiga asosan, materiallar orqali filtrlash yo'li bilan va elektr toki yordamida ajratib olinishi mumkin. Chang tozalash qurilmalarida yuqorida sanab o'tilgan kuchlar ayrim holda yoki bir necha usulni o'ziga jamlagan holda ishlatilishi mumkin.

Bundan tashqari quruq va namlanuvchi chang tozalash qurilmalari mavjud. Quruq chang tozalash qurilmalari asosan changga aylangan moddalar qimmatbaho bo'lgan hollarda (masalan, un, metall va tolasimon changlar) va shuningdek organik moddalardan tashkil topgan changlarni (masalan, yog'och, paxta tozalash sanoati changlari) tozalash maqsadida qo'llaniladi. Chunki organik changlarning suv bilan birikmasi achib, qo'lansa hid chiqarishi va uni utillashtirishda mushkulliklarga olib keladi. Namlangan chang tozalash qurilmalaridan ko'o'pincha mineral moddalardan tashkil topgan keraksiz changlarni (masalan, kul, tosh va qum changlari) tozalashda qo'llaniladi.

3.2. Matoli filtrlar

Matoli filtrlarning ishlash uslublari changlangan havoning mato orqali sizib o'tkazishga asoslangan, bunda havodagi changlar mato tolalari tuklariga ilinib qoladi, havo esa tozalanib, chiqarib yuboriladi. Matoli filtrlarning chang tozalash qobiliyati matoning qalin yoki yirik to'qilganligiga, uning tolalari tarkibiga bog'liq.

Masalan, qalini to'qilgan junli matolarda changning ushlanib qolish imkoniyati ko'p va bunday matolarning chang tutish samaradorligi juda yuqori, ya'ni 95-99,9 foizni tashkil qiladi. Lekin shuni ham eslatib o'tish kerak, bunday matoli filtrning havo o'tkazish qarshiligi nihoyatda katta bo'lib, taxminan $1200-4000 \text{ n/m}^2$ ni tashkil

